

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 7/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Холлиев Азизбек Гўзалович</i> РОССИЯ-АМЕРИКА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН (XVIII АСР ЎРТАЛАРИ – XIX АСР БИРИНЧИ ЯРМИ)	7-13
<i>Юлдашев Сайданварбек Баҳромжон ўғли</i> ФАРГОНА СОМОНИЙЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР	14-25
<i>Бобоҷонов Шавкат Улуғбековиҷ</i> ФЕНОМЕН БАҲАУДДИНА НАҚШБАНДИ В ПАЛОМНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА	26-31
<i>Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna</i> ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI	32-39
<i>Isarov Umidulla Isar o'g'li</i> “ILK KO'CHMANCHILAR” ATAMASI MUAMMOSI	40-45
<i>Исламов Шарифжон Ганиджанович</i> “КЕНГАШ” ЖУРНАЛИДА СИЁСИЙ, ДИНИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ	46-54
<i>Фарманова Гулнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ ХХ ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ Г.В.ГРИГОРЬЕВА И А.И.ТЕРЕНОЖКИНА).....	55-64

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	65-71
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> ONLAYN MOLIYAVIY XIZMATLARNING XUSUSIYATLARI	72-79
<i>Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич, Бабаназарова Севара Абдиназаровна</i> ИНСОН КАПИТАЛИ ТУШУНЧАСИННИГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА УНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ	80-90
<i>Norkochkarov Abdulaziz Ziyadullaevich</i> PRACTICAL ASPECTS OF CREATING COST ESTIMATE IN BUDGET ORGANIZATIONS	91-98
<i>Темиров Шоҳруҳжон Пўлатхўжа ўғли</i> КИЧИК БИЗНЕС РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ, ДАРАЖАЛАРИ ВА БАРҚАРОРЛИГИДА ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ (ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	99-108

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Raximova Dildora Abzalovna</i> GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI	109-114
---	---------

Искандаров Жаҳонғир Шарипович
ИНТУИЦИЯ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ 115-121

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI 122-128

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ
ХОДИСАСИНИНГ ЎРНИ 129-137

Rasulova Gulbahor
AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 138-143

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li
КОГНИТИВ ЛИНГВИСТИКА ФАНИНИ ТАQQOSLASHNING UMUMIY TENDENSIYALARI 144-149

Bobojonov Dilshod Jumaqul ugли, Halilova Shohista Muhammadi qizi, Umarova Maftunbonу
Umidjanovна, Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovна, Gulnora Xolmurodova Sattorovна
LINGUISTIC FEATURES OF THE MODERN NEWSPAPER LANGUAGE: ANALYSIS AND
RESEARCH 150-159

Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna, Berdiyev Suhrob Sobirovich, Togaev Bobur Erkin ugли, Hafizov
Sarvar Boborajab ugли, Maxsumov Rustam Maxamadiyevich
CHARACTERISTICS OF THE NEO-VICTORIAN NOVEL IN THE "FRENCH LIEUTENANT'S
WOMAN" BY JOHN FOWLES 160-166

Xolmuxamedov Baxtiyor Farxodovich
О'ЗБЕК ТИЛИДА YARATILGAN CHAPPA (TERS) LUG'ATLAR HAQIDA 167-176

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
БАЪЗИ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ИНТЕРНЕТ ТАРМОГИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР
ЭТИЛАДИГАН ТАЛОН-ТОРОЖ ЖИНОЯТЛАРИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК
МАСАЛАЛАРИ 177-187

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
MATNNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA 188-192

Xaydarov Azamjon Asqarovich
“OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI YO'NALISHI” TALABALARINI UMUMIY KIMYO KURSINI O'QITILISHDA
INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI 193-198

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
ADABIY TA'LIM TIZIMIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV 199-204

Gaynullaeva Yulduz Anvarovna
PROFESSIONAL AND AESTHETIC APPROACH TO TYPES OF WOMEN'S CLOTHING 205-210

Ablazov Nurillo Xusanboevich
Tayanch doktorant, FarPi
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti
Email: nurilloablazov1990@gmail.com

QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish korxonalarining daromadlari va xarajatlarini tan olish qoidalari va ularni hisobga olishning nazariy va amaliy masalalari to'g'risiga doir masalalar tadqiq qilingan. Qurilish korxonalarida daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirishga doir ishlarni tizimli tashkil qilish maqsadida analitik schyotlarni ochish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan. Qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Qurilish korxonalari, buxgalteriya hisobi, daromad va xarajat, shartnoma bo'yicha aktiv, shartnoma bo'yicha majburiyat, foyda va zarar, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Ablazov Nurillo Khusanboevich
Doctoral student, Assistant of the
department “Accounting and audit” of FerPi

PROBLEMS OF IMPROVING RECOGNITION OF INCOME AND EXPENSES IN CONSTRUCTION ENTERPRISES BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Abstract. This article examines the rules of recognition of income and expenses of construction enterprises and the theoretical and practical issues of their accounting. Recommendations and suggestions on opening analytical accounts have been developed in order to systematically organize work on improving income and expense accounting in construction enterprises. Practical recommendations on improving the organization of accounting in construction enterprises have been developed.

Key words: Construction enterprises, accounting, income and expense, contract asset, contract liability, profit and loss, International Standards of Financial Reporting..

Аблазов Нурилло Хусанбоевич
Докторант, Ассистент кафедры
«Бухгалтерский учет и аудит» ФерПи

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ДОХОДОВ И РАСХОДОВ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются правила признания доходов и расходов строительных предприятий и теоретические и практические вопросы их учета. В целях системной организации работы по совершенствованию учета доходов и расходов на строительных предприятиях разработаны рекомендации и предложения по открытию аналитических счетов. Разработаны

практические рекомендации по совершенствованию организации бухгалтерского учета на строительных предприятиях.

Ключевые слова: Строительные предприятия, бухгалтерский учет, доходы и расходы, актив по договору, обязательство по договору, прибыль и убыток, международные стандарты финансовой отчетности.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I7/SY2023N08>

Kirish. Bozor munosabatlariga o'tishning yuqoridagi asosiy tamoyillari buxgalteriya hisobini isloh qilishda va korxonaning hisob tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida tashkil qilishda ham alohida ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham buxgalteriya hisobini isloh qilishda, avvalo, uning hozirgi tizimni saqlab qolgan holda asta-sekin evolyutsion yo'l bilan metodologik, tashkiliy va texnik o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Bunda mustaqilligimizning dastlabki yillarida amalga oshirilgan tadbirlar alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday tadbirlardan biri Davlat mulki bo'lgan obyektlarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni amalga oshirish edi. Shu maqsadda hukumat iqtisodiyotning turli tarmoqlarida xususiy lashtirishga oid 20 dan ortiq qarorlar qabul qildi. Bu qarorlarni amalga oshirish mulkchilik shakllarining rivojlanishiga va bu bevosita buxgalteriya hisobining uslubiy asoslarini rivojlantirishni ham talab qilar edi. Bu borada mamlakatimizda yirik loyihibar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bunga yaqqol misol qilib Iqtisodiyot va moliya vazirligini buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari tahsinga sazovordir, bundan tashqari prezidentimizning 24.02.2020 yil kungi PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori dasturi amal bo'lib kelmoqda. Bu qarordan ko'zlangan maqsad korxonalarini hisobotlarini yanada shaffof ko'rinishga keltirish, takomillashtirish hamda yirik investorlarga korxona hisobotlariniadolatli, shaffof taqdim qilish, jozibadorligini oshirish va albatta xalqaro iqtisodiy maydonga kirishdan iborat. Buxgalteriya hisobining yuqorida belgilangan talablarga javob berishini nazorat qilish mustaqil auditorlik firmalari va davlat soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobotining o'rni va ahamiyati tubdan o'zgaradi.

Adabiyotlar sharhi. Qurilish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro andoza asosida tashkil qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Mazkur ishlar bo'yicha bir qancha mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarni fikrlarini tadqiqi qilishga jazm qildik. Bu borada professor S.B. Qodirxonov shunday deb, ta'kidlaydi "Agar xohlansa ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobini alohida yuritish mumkin, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlarini schetlarning umumiy tizimidan ajratib olgan holda yuritib, shu bilan g'arb mamlakatlarida keng tarqalgan ishlab chiqarish va moliya buxgalteriya hisobiga o'tish mumkin. Natijada ishlab chiqarish buxgalteriyasi bilan moliya buxgalteriyasi tashkiliy jihatdan ajratilishi mumkin bo'ladi.

Ularning vazifalariga to'xtalar ekan, professor S.B.Qodirxonov shunday deb, yozadi: "Bunda ishlab chiqarish buxgalteriya hisobini ishlab chiqarishni boshqarish va ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish manfaatini ko'zlab yuritilsa, moliyaviy hisob korxonaning moliyaviy hisoboti tizimi va uning moliyaviy hamda tijorat faoliyatini boshqarish maqsadida yuritiladi. Hisobchilikning bunday tartibiga o'tish har xil

darajadagi boshqaruv tizimini zaruriy axborotlar bilan ta'minlashni sezilarli ravishda takomillashtirish bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va mahsulotning ayrim turlarining rentabellik darajasi haqidagi tijorat sirlarini yashirish imkonini beradi”[1].

Ammo K.K. Jumaniyozov va B.Y.Maqsdovlarning fikricha, “Buxgalteriya hisobini rivojlantirishda bir narsaga alohida e'tiborni qaratish lozim, u ham bo'lsa, buxgalteriya hisobini bozor iqtisodi talablari asosida takomillashtirish faqatgina hisob ma'lumotlari doirasini, mazmunini, maqsadga muvofiqligini, muddatini, uni olishga ketadigan xarajatlarni va boshqaruv obyektlarini aks ettirish usullarini kengaytirish asosida bo'lmasligi kerak. Chunki, bu omillar hisob ishlari hajmining o'zini oqlamagan tarzda o'sish va buning oqibatida boshqaruv tizimining talabga javob bermasligi hamda uning yuritilishida soxtalik yuz berish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin”[1].

Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda K.K. Jumaniyozov va B.Y.Maqsdovlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining foydaliligi to'g'risida shunday deb yozadi: “Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda olinayotgan barcha ma'lumotlarning 40-50 foizi keraksiz, shu bilan birga boshqaruvning ma'lumotga ehtiyoji 50 foizga qondirilmas ekan”[2].

Professor Ya.V.Sokolov 1940 yillarning oxiri va 1950 yillarning boshlarida dunyoning rivojlangan mamlakatlarida buxgalteriya hisobida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi va u “Moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'lindi”[3] deb, ma'lumot beradi. Moliyaviy hisob, asosan, tashqi foydalanuvchilarning manfaati uchun yuritilsa, boshqaruv hisobi korxona manfaatini ko'zlab tashkil qilinadi.

Buxgalteriya hisobining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil bu sanoatning rivojlanishi va natijada iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

“G'arb klassifikatsiyasiga muvofiq buxgalteriya hisobi o'zining rivojlanishida quyidagi 5 bosqichni bosib o'tgan va ular asosan jahonning rivojlangan mamlakatlari AQSH, Germaniya, Yaponiya va Fransiyada qo'llanilgan. Ular savdo (1880 yilgacha), tadbirkorlik (1800-1900 yillar), tashkiliy (1900-1950 yillar), optimizatsion (1950-1975 yillar), strategik (1975 yildan hozirgacha). Buxgalteriya hisobining hozir amalda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo'llanayotgan strategik tizimida buxgalteriya hisobi va marketingning integratsiyalashuvi natijasida xo'jalikning istiqboldagi moliyaviy holatini aniqlash imkoniyatlari vujudga keldi.

T.P.Karpovaning fikricha, an'anaviy hisob usullarining barham topishi va buxgalteriya hisobining ikkiga — Moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- kapitalning konsentratsiyalashuvi sharoitida tashqi va ichki raqobatning kuchayishi;
- inflyatsiyaning va ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi;
- transmilliy korporatsiyalarining tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi.

Bizningcha, T.P.Karpovaning fikrlari o'rini, "...chunki buxgalteriya hisobining an'anaviy usullari haqiqatdan iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida boshqaruv talablariga javob bera olmay qoldi va uni davr talabi asosida rivojlantirish ehtiyoji vujudga keldi”[3].

Masalan: N.P.Kondrakov, Z.V.Kiryanov va boshqalar buxgalteriya hisobiga doir kitoblarida moliyaviy va boshqaruv hisoblarini turli belgilari bo'yicha taqqoslashganda B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduellning “Printsipi buxgalterskogo ucheta” kitobiga tayanishgan[4].

Respublikamizda va MDH mamlakatlarida buxgalteriya hisobini isloq qilish va uni bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirishda asosiy e'tibor moliyaviy hisobga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash kabi statistik usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarni hisobga olishni takomillashtirish masalalari moliyaviy hisobotlarni tuzuvchilarni ham, ulardan foydalanuvchilarni ham qiziqtiradi. O'zbekiston Respublikasida MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini isloh qilish kontekstida mavjud qoidalar qayta ko'rib chiqilmoqda va xalqaro standartlarga o'xshash yangilari chiqarilmoqda[5].

2014 yil may oyida IASB (keyingi o'rirlarda IASB deb yuritiladi) yangi 15-IFRS standartini nashr etdi. Standart IASB tomonidan AQSH Moliyaviy Hisob Standartlari Kengashi (FASB) (keyingi o'rirlarda FASB) bilan birgalikda ishlab chiqilgan va MHXS va Amerika buxgalteriya hisobi tamoyillarining yaqinlashishi natijasidir.

Yangi standart qurilish tashkilotlari uchun avvalgi quyidagi standartlarni almashtiradi:

- IFRS 18 Daromad
- IFRS 11 "Qurilish shartnomalari"

Ushbu standartning paydo bo'lishi bilan, boshqa bir qator mahalliy buxgalteriya qoidalariga tuzatishlar kiritish talab etiladi. Yangi standart 2018 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Ushbu standartga o'tishning alohida ahamiyati tufayli ishlab chiquvchilar standartni joriy etish amaliyotini nazorat qilishlari, unga qo'shimcha yo'riqnomalarni ishlab chiqish zarurligini aniqlashlari, murakkab muammolarni muhokama qilish uchun platforma rolini o'ynashlari kerak bo'lgan maxsus ishchi guruhni tuzdilar, yangi standartni turli foydalanuvchilar guruhlari o'rtasida amaliy qo'llash va h.

Yuqorida aytib otliganidek, to'lov uchun taqdim etilmagan hisoblangan daromad amalda "virtual" deb ataladi. Buxgalteriya hisobidagi ushbu daromad mustaqil aktiv turi sifatida tan olinadi – "to'lov uchun taqdim etilmagan hisoblangan daromad" va u balansa batafsil aks ettirilishi kerak[6].

Biroq, O'zbekiston Moliya vazirligining tavsiyalarida ushbu daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobotda qanday paydo bo'lishi haqida hech qanday tushuntirishlar yo'q, shuning uchun "Daromad" ko'rsatkichini umumlashtirishda hech qanday tarkibiy qismlarni ajratmasdan turib aks ettirishning umumiyligi qoidasiga amal qiladi. Bu agar xaridor ishni qabul qilmasa yoki to'lashdan bosh tortsa, "Daromad" ko'rsatkichini yashirish yoki hatto buzish xavfini oshiradi. Bunday holatlar qurilish biznesi uchun, ayniqsa, qurilish uchun ajratilgan byudjet mablag'larini o'zlashtirishda qo'l keladi. Mahalliy iqtisodiyotda budjetga qayta olib qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida kapital qurilishga ajratilgan byudjet mablag'larini o'zlashtirish bo'yicha bajarilgan ishlar dalolatnomasini ro'yxatdan o'tkazish kabi insofsizlik amaliyoti rivojlandi. Shu bois imzolangan dalolatnomalarga ko'ra, obyektlar qurilayotgan deb hisoblansada, amalda esa hech qanaq obyekt qurilish jarayonida bo'lmaydi. Aslida qurilish ko'pincha kechroq amalga oshiriladi yoki qo'shimcha mablag' talab etiladi. Buyurtmachi tomonidan daromad (sotish) faktining (qonuniy) tan olinmaganligi, tayyor bo'lishi bilanoq tan olingan daromadni debtorlik qarzidan olingan daromaddan (mijoz tomonidan tan olingan qarz) ajratish to'g'risidagi taklifning asosiy sababi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, buyurtmachi tomonidan qonuniy ravishda tan olingan daromadni faqat qurilish pudratchisi uchun buxgalteriya hisobi yuritishda nazorat choralarini asosida tan olingan daromad bilan chalkashtirib yuborish noto'g'ri bo'ladi. Qurilish korxonalarida daromad va xarajatlarni tan

olish bo'yicha amaliyotga 15 – MHXS asosida yangi analitik schyotlar tavsiya etildi[5]. Mazkur schyotlarni bir korxona misolida tahlil qilsak:

"Universal complex plus" MCHJ 2022 yil 1 yanvarda xaridor bilan yotoqxona binosi qurishga 2 mlrdlik shartnoma tuzdi. Shartnoma shartiga ko'ra bino 2 yilda topshirilishi kerak. "Universal complex plus" xaridorlar bilan shartnomalardan olingan daromadlarni xarajatlar usuli orqali tan oladi.

2022 yil 31 dekabrda smeta bo'yicha jami 1,5 mlrd xarajatning 40 foizi ishlatildi. 30 dekabr kuni xaridorga 500 mln UZS schyot faktura yuborildi va xaridor buni to'lab berdi. 2022 yil yakuni hisobotlariga quyidagi o'tkazmalar berilishi kerak:

1-qadam

Avvalo shartnoma foyda yoki zarar keltiruvchi ekanligini aniqlab olamiz.

mln UZS

Shartnoma qiymati	2000
Yil yakunidagi xarajat	600
Smeta bo'yicha kelgusi xarajat	900
Smetaga o'zgartirish xarajati	<u>200</u>
Jami daromad	300

Demak, smetaga qo'shimcha xarajatlar qo'shilganda ham shartnoma korxona uchun **foyda** keltiruvchi ekanligini aniqladik.

2-qadam

Shartnoma bajarilish foizini aniqlash. Berilgan ma'lumotdan ko'rinish turibdiki 40% xarajat qilingan. Lekin smetaga o'zgartirish kiritilgani hisobiga jami xarajatlarning 35% foizi ishlatilgan.

$$\text{*foiz aniqlash } 600/(600+900+200)*100\% = 35\%.$$

3-qadam

Foyda va zarar hisobotiga boruvchi miqdorlarni aniqlaymiz.

mln UZS

Tushum	2000*35\% = 700
Hisobot kunigacha xarajat	<u>600</u>
Yalpi daromad	100

4-qadam

Balans hisobotiga boruvchi qiymat.

Hisobot sanasigacha tushum	700
Schet faktura qiymati	<u>500</u>
Shartnoma bo'yicha aktiv(4030)	200

Agarda korxona dastlabki smeta ozgarib shartnoma zarar keltiruvchi bolganda quyidagicha hisobot qilinsihni kerak:

1-qadam

Avvalo shartnoma foyda yoki zarar keltiruvchi ekanligini aniqlab olamiz.

mln UZS

Shartnoma qiymati	2000
Yil yakunidagi xarajat	600
Smeta bo'yicha kelgusi xarajat	900
Smetaga o'zgartirish xarajati	<u>600</u>
Jami zarar	-300

Demak, smetaga qo'shimcha xarajatlar qo'shilganda shartnoma korxona uchun **zarar** kelturuvchi ekanligini aniqladik.

2-qadam

Shartnoma bajarilish foizini aniqlash. Berilgan ma'lumotdan ko'rinish turibdiki 40% xarajat qilingan. Lekin smetaga o'zgartirish kiritilgani hisobiga jami xarajatlarning 29% foizi ishlataligan.

$$\text{*foiz aniqlash } 600/(600+900+600)*100\% = 29\%$$

3-qadam

Foyda va zarar hisobotiga boruvchi miqdorlarni aniqlaymiz.

mln UZS

Tushum	2000*29\% = 580
Hisobot kunigacha xarajat	600
Qo'shimcha tan olingen xarajat	<u>80</u>
Jami zarar	-100

4-qadam

Balans hisobotiga boruvchi qiymat.

mln UZS

Hisobot sanasigacha tushum	2000*29\% = 580
Schet faktura qiymati	<u>500</u>
Shartnoma bo'yicha aktiv(4030)	80

Mazkur misolda biz shartnoma bo'yicha aktiv schet 4030 kiritishni taklif qildik. Bu analitik schetni 21-BHMSga qo'shishdan maqsad qurilish korxonasini moliyaviy hisobotlarida ya'ni, balansida joriy aktivlarida jamlanuvchi "Olinadigan schetlar" dan ajratishdan iborat[6]. Chunki xalqaro standartlarda hisobotlarni tahlil qilish sohasi mavjud bo'lib, unda "Olinadigan schetlar" analitik scheti tahlil qilinadi hamda debitorlik qarzlarini undirish davri hisoblanadi. Fikrimizcha, bizning tavsiyamiz korxonalarining debitorlik qarzlarini undirish davrini qisqartirishda hamda joriy aktivlarni balansda yanada shaffof va aniq taqdim etishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Qurilish korxonalarini faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Qurilish korxonalarida daromadlar va xarajatlari hisobini yuritishda xalqaro andozadan foydalanildi. Ya'ni, "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari"ning 15 — "Daromad" standartiga mos ravishda xarajatlar usuli dan foydalanish taklif etildi.

2. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari"ning 15 — "Daromad" standartiga muvofiq qurilish korxonalarida daromad va xarajatlarni tan olishda 5 ta qadam taklif etildi natijada moliyaviy hisobotlariga ya'ni buxgalteriya balansiga 4030 — "Shartnoma bo'yicha aktiv" hamda 6030 — "Shartnoma bo'yicha majburiyat" analitik schetlari taklif etildi.

3. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda debitorlik qarzlarini undirish davrini qisqartirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. M.B.Kalonov, A.T.Maxkamboev, F.T.Temirov Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma. «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. -180 b.
2. D.Q.Usmanova Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. SamDU 2020.
3. P.N. Gadjiyeva Qurilish korxonalarida moliyaviy natijalar hisobi. Iqt.fan.nom. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.-T.:2019. -B36.
4. Ergasheva Sh., Temirov F. va bosh. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. T.: 2016-y
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.2020 y.
6. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qarori. PQ-4611. 24.02.2020y

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o S/7(3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсуллияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).